

Nyu-Yorkka parvozlar yanada hamyonbop bo'ldi

2025 9 Oktabr

Imkoniyatdan foydalaning: 10-oktabrdan 31-oktabrgacha Toshkent – Nyu-York – Toshkent yo'nalishi bo'yicha chiptalarni ekonom-klass tariflariga 10% gacha chegirma bilan xarid qiling. Aksiya 2025-yil 10-oktabrdan 2026-yil 31-martgacha amalga oshiriladigan aviaqatnovlarga amal qiladi.

Chegirmadan foydalanish imkoniyatini qo'ldan boy bermang! Yo'lovchi va yuk tashish tarifiga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va qo'shimcha to'lovlar belgilanadi, ularga 10% gacha chegirma qo'llanilmaydi.

1. Sotuv muddati - 10.10.2025 dan 31.10.2025 gacha;

2. Parvoz davri 10.10.2025 dan 31.03.2026 gacha;

3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun - ekonom-klass tariflarining 10% gacha;

- salonda joy egallaydigan 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - bolalar chegirmasi qo'llanilgan holda e'lon qilingan tarifning 10% gacha (bunda uni to'g'ri hisoblash uchun e'lon qilingan chegirma miqdori kattalar ekonom-klass tarifidan 33%ni tashkil etadi);

- 2 yoshgacha bo'lgan va salonda joy egallamaydigan bolalar uchun ushbu chegirma tatbiq etilmaydi;

4. Qaytarish/qayta bronlash/qayta rasmiylashtirishda tarifga taqdim etilgan chegirma qaytarish/qayta rasmiylashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi, bolalar uchun - belgilangan tartibda (25% chegirma qo'llanilgan holda) undiriladi. Qisman foydalanilgan aviachiptani qaytarish summasini hisoblash uchun chegirma qo'llanilmagan holda foydalanilgan uchastkadagi tarif chegirib tashlanadi;

5. Chegirma qo'llanilgan holda to'liq foydalanilmagan aviachiptalar chegirma amal qilish muddatiga to'g'ri kelmaydigan sanalarda qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalar qo'llanilmagan holda tarifning to'liq darajasiga qo'shish zarur;
6. Chegirma qo'llanilmasdan rasmiylashtirilgan aviachiptalar 10.10.2025 dan 31.03.2026 gacha bo'lgan davrda qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, tarifga chegirma qo'llanilmaydi.
7. Chegirma bilan rasmiylashtirilgan qisman foydalanilgan aviachiptalar 01.04.2026-yildan boshlab aviaqatnovlarga qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirma aksiya davrida tushmagan 2-segmentga, shu jumladan yo'nalishning teskari qismidagi OPEN DATE segmentiga ham qo'llanilmaydi. Agar OPEN segmenti bo'yicha yangi uchish sanasi aksiya davriga to'g'ri kelmasa, chegirma yo'nalishning ushbu qismiga qo'llanilmaydi, chipta qayta rasmiylashtirilishi kerak;
8. Aksiya davrida HYWHFRTM promokodi (10% gacha chegirma) va 01.10.2025 (15% gacha chegirma) bo'yicha to'liq foydalanilmagan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, ushbu aksiya davridagi qatnovlarga 10% gacha chegirma qo'llaniladi (tarif bo'yicha qo'shimcha to'lovni amalga oshirish zarur);
9. Chegirma faqat aksiya o'tkaziladigan davrga to'g'ri keladigan uchastka uchun qo'llaniladi. Chegirma guruhli bronlarga tatbiq etilmaydi;
10. Bolalarnikidan tashqari chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
11. Chegirma Toshkentdan Nyu-Yorkka va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishda e'lon qilingan ekonom-klass xizmatlarining barcha individual tariflari (OW/RT) uchun ruxsat etiladi. To'g'ridan-to'g'ri tashishni sotishda chegirma faqat Toshkentdan/ga Nyu-Yorkka/dan va ortga bajariladigan yo'nalishda qo'llaniladi. Chegirma SPA tariflari, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri tashish tariflari (RBD J, H, E, N, Q, W) uchun amal qilmaydi.